



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 21-yanvar

20-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyat hokimining 2025-yil 15-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 24-noyabrdagi 709-son qaroriga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish haqida” 2025-yil 10-yanvardagi 6-son qarori ijrosi haqida”gi 19-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-yanvardagi 6-son qarori hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 15-yanvardagi 19-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 15-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 24-noyabrdagi 709-son qaroriga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish haqida” 2025-yil 10-yanvardagi 6-son qarori ijrosi haqida”gi 19-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-yanvardagi 6-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-yanvardagi PF-15-son Farmoni bilan 2024-yil 1-martdan boshlab qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari ijarachilariga

ijaraga berilgan yer uchastkalari bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini yer uchastkasidan foydalanish maqsadini o'zgartirmagan holda boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijaraga berishga) ruxsat berilganligi;

Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 24-noyabrdagi 709-son qarorida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasini qayta ijaraga berish (boshqa shaxsga o'tkazish) ko'chmas mulkka oid bitimlarni rasmiylashtirish tartibida amalga oshirilishi va notarial tartibda tasdiqlanishi belgilanganligi;

Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 24-noyabrdagi 709-son qaroriga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-yanvardagi 6-son qarori ilovaga muvofiq qo'shimchalar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, tuman adliya bo'limi (A.Qodirov), Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (X.Inomov), Kadastr agentligining tuman bo'limi (A.Shodmonov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-yanvardagi 6-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**